



HIKOYA USULI ASOSIDA O'QUVCHILARNING PSIXIK JARAYONLARINI RIVOJLANTIRISH ASPEKTI

Turon universiteti Psixologiya yo'nalishi 2- kurs talabasi

Qulmurodova Ruxshona

Annotatsiya: *Ushbu maqolada hikoya usulining o'quvchilarning psixik jarayonlariga ta'siri, uning pedagogik va psixologik ahamiyati hamda ta'lim jarayonidagi samaradorligi keng yoritilgan. Shuningdek, hikoya usuli tafakkur, tasavvur, xotira, diqqat va nutq rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatishi batafsil tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *Hikoya usuli, psixik jarayonlar, tafakkur, tasavvur, xotira, diqqat, nutq rivoji, emotsional intellekt, ijodiy tafakkur, pedagogika, psixologik rivojlanish, ta'lim.*

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning psixik rivojlanish darajasi ularning akademik muvaffaqiyati va shaxsiy o'sishi uchun muhim omil hisoblanadi. Psixik jarayonlar, jumladan, tafakkur, tasavvur, xotira va diqqat o'quvchilarning ta'limni samarali o'zlashtirishida asosiy rol o'ynaydi. Ushbu jarayonlarni rivojlantirish uchun pedagoglar turli o'qitish metodlaridan foydalanadilar. So'nggi yillarda hikoya usuli ta'lim jarayonida samarali metodlardan biri sifatida keng qo'llanilmoqda.

Hikoya – badiiy adabiyotda kichik epik janr, hayot hodisalari ixcham ifoda etiladigan nasriy asardir. Hikoya inson hayotida yuz bergan ixcham voqeani lo'nda ifodalashga mo'ljallangan. Ixchamlik hikoyaning muhim belgisi, lekin unda personaj hayotidan birgina lavha, uzoq davrlik voqealar, personajlarning butun umr yo'li, bir emas, bir necha odamlar taqdiri, xarakterning shakllanish jarayoni, ruhiy holatlarning almashinib turishi, muhim fazilat bo'lib qolishi mumkin. Biroq har qanday ko'rinishda ham tasvir ixcham tarzda beriladi. “Hikoya” atamasi kengroq ma'noda biror voqeani gapirib berishni ham anglatadi. So'zlab berilgan bunday voqelik o'z



qamrovi, hajmi, rang-barangligi bilan qissa yoki romanga xos bo'lishi ham mumkin. Bunday hollarda bu atama janr ma'nosida tushunilmaydi.

Hikoya – bu inson tafakkurining tabiiy shakli bo'lib, bolalar tomonidan osongina qabul qilinadi. U orqali bolalar dunyoni anglaydi, axborotni eslab qoladi va o'z fikrlarini shakllantiradi. Hikoya usuli nafaqat akademik bilimlarni o'zlashtirishga, balki bolalarning emotsional va ijtimoiy rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Masalan, bolalar hikoya orqali qahramonlarning his-tuyg'ularini tushunib, empatiya kabi insoniy fazilatlarni rivojlantiradilar. Shuningdek, hikoya usuli maktabgacha yoshdagi bolalardan tortib o'rta maktab o'quvchilarigacha bo'lgan turli yosh guruhlariga uchun mos keladi. U o'quvchilarning yosh xususiyatlariga qarab moslashtirilishi mumkin.

Hikoya usuli uzoq yillardan beri ta'lim va psixologiya sohasida tadqiq etib kelinadi. Psixolog Lev Vygotskiy o'quvchilarning “yaqin rivojlanish zonasi” kontsepsiyasida hikoya qilish jarayoni bola tafakkurini kengaytirishga yordam berishini ta'kidlaydi. Jean Piaget esa bola tafakkuri mantiqiy fikrlash jarayoni rivojlanishida hikoya metodi muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi.

Hikoya usulining o'quvchilar kognitiv va emotsional rivojlanishiga ta'sirini quyida ko'rib o'tamiz. Hikoya orqali bolalar sabab va oqibat munosabatlarini tushunadi, mantiqiy tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi va jarayonda ularning tafakkuri rivojlanadi. Hikoya qahramonlari va voqealar orqali bolalar o'z tasavvur olamini kengaytiradi, ijodiy tafakkur shakllanadi. Ketma-ketlikda rivojlanuvchi hikoyalar bolalarning xotirasini mustahkamlashga yordam beradi. Hikoya mazmuniga e'tibor qaratish bolalarni diqqatini jamlashga o'rgatadi. Hikoya qilish va eshitish jarayonida bolalarning so'z boyligi kengayadi, ular o'z fikrlarini aniq va to'g'ri ifodalashni o'rganadilar.

Hikoya metodi turli yoshdagi o'quvchilar uchun mos bo'lib, 3-6 yoshdagi bolalar eshittirilgan hikoyalar orqali tasavvur dunyosini boyitadilar. Bunda ertaklar va obrazli hikoyalar muhim rol o'ynaydi. 7-10 yoshdagi bolalar hikoya orqali sababiy bog'liqliklarni tushunishadi va tafakkur rivojlanadi. 11-15 yoshdagi bolalar



hikoyalarning tahlili, qahramonlarning harakatlarini muhokama qilish va xulosa chiqarish orqali tanqidiy tafakkurini shakllantiradi.

Hikoya usuli quyidagi shakllarda ta'lim jarayoniga tatbiq etilishi mumkin:

- Muammoli hikoyalardan foydalanish: Hikoyaning rivojlanishini bolalar o'zlari davom ettirishi mumkin, bu ijodiy tafakkurni rivojlantiradi.

- Hikoya asosida rolli o'yinlar o'tkazish: O'quvchilar hikoya qahramonlari sifatida ishtirok etib, voqealarni jonlantiradilar.

- Hikoya yozish mashqlari: O'quvchilar o'zlari hikoya yozish orqali ijodiy tafakkurini rivojlantiradilar.

- Hikoya asosida savol-javob qilish: Hikoyani tahlil qilish, undagi asosiy g'oyalarni ajratish orqali tafakkur va mantiqiy fikrlash shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda hikoyalar bolalarning faqatgina tafakkurini emas, balki emotsional rivojlanishini ham ta'minlaydi. Ular qahramonlarning his-tuyg'ularini tushunib, empatiya va ijtimoiy moslashuv ko'nikmalarini shakllantiradilar. Hikoya usuli o'quvchilarning psixik jarayonlarini rivojlantirishda kuchli ta'sirga ega bo'lib, ta'lim jarayonida keng qo'llanilishi lozim. U tafakkur, tasavvur, xotira, diqqat va nutq rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, o'quvchilarning emotsional va ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Demak hikoya metodi samarali o'qitish usuli bo'lib, uni o'quv jarayoniga keng tatbiq etish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI.

1. Karimova, V. (2010). Psixologiya. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
2. Yo'ldoshev, Q. (2000). Umumiy psixologiya. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi nashriyoti.
3. Abdukarimova, D. A., Jo'rayev, N. H. (2019). Pedagogik psixologiya. Toshkent: Ilm Ziya.
4. Solijonov, Yo'ldosh. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.